

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
FAKULTET VA GOSPITAL TERAPIYA,
HDT VA GEMATOLOGIYA,
LABORATORIYA ISHI KAFEDRASI

ANEMIK SINDROM

Muallif: Ass. Egamova S.Q.

ANEMIYA - QONDA GEMOGLOBIN VA ERITROSTITLARNING HAJM BIRLIGIDA KAMAYISHIGA AYTILADI.

Kamqonlikka yoki anemik sindromga olib keladigan kasalliklar:

- 1.Temir tanqislik anemiyasi
- 2.Vitamin V 12 tanqislik anemiyasi
- 3.Folat kislota tanqislik anemiyasi
- 4.Gipo va aplastik anemiya
- 5.Gemolitik anemiya
- 6.O'tkir leykozdan keyingi anemik sindrom
- 7.Surunkali limfoleykozdan keyingi anemik sindrom
- 8.Surunkali mieloleykozdan keyingi anemik sindrom
- 9.Surunkali yalliglanishlardan keyingi anemik sindrom
- 10.Onkologik kasalliklardan keyingi anemik sindrom
- 11.Jigar stirrozidan keyingi anemik sindrom

Temir tanqislik anemiyasi (TTA)

Organizmnda temir yetishmasligi yoki turli sabablarga kura uning qon tarkibiga kira olmasligi natijasida qon yaratuvchi to'qimalarda gemoglobin sintez qilinishining buzilishi bilan bog'lik, eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining keskin kamayishi tufayli gipoksemiya bilan xarakterlanadigan kasallik.

KLINIKASI

Temir tanqislik anemiyasida 2 ta sindrom uchraydi.

1. Anemik sindrom.

2. Sideropenik sindrom.

Anemik sindrom belgilari - bosh aylanishi, birdan urnidan to'rganida kuz oldi tinishi, engil jismoniy xarakatlarda xansirash, engil jismoniy xarakatlarda yurak tez urishi, yurak soxasida og'riqlar paydo bo'lishi, yurak xastaligi mavjud blugan kishilarda yurak soxasida bo'ladigan og'riqlar yoki xurujning kuchayishi, bosh og'riqlar, umumiy kuvvatsizlik. Bu belgilar organizmda kislorod etishmasligi natijasida kelib chikadigan simptomatika. Bu simptomatika barcha kamqonliklarda kuzatiladi.

KLINIKASI

Sideropenik sindrom belgilari - terining quruqlashishi, soch tuqilishi, soch yorilishi, tirnoklarning yupkalashishi, tirnokda chiziklar paydo bo'lishi, tirnoklar sinuvchanligining oshishi, ayrim paytda tirnoklar ichkariga botib kirishi (koynonixiya)

Ta'm bili shva hid bilishning buzilishi: turli xil yokimsiz hidlarni yoktirib qolishi (sigaret, nam, zax, asteton, benzin, kerosin, kraska, rezina, tutun, lak, sovun, Yangi poyafzal, kitob, kogoz, nos)

Ta'm bilishni buzilishi yoki turli xil iste'mol kilib bulmaydigan maxsulotlarni yoktirish (bur, kesak, kum, sham, shamba, un, hamir, tuyilgan guusht, tuz, muz, xom guruch, xom makaron, tish pastasi).

TEMIR TANQISLIK ANEMIYASIGA OLIB KELADIGAN SABABLAR:

- 1.tug'ish yoshida uchraydigan kamqonliklar
- 2.xayz stikli uzok muddat cho'ziladigan ayollar (5-7 kun)
- 3.tez-tez homilador bo'ladigan ayollar
- 4.kamqon onadan tug'ilgan bola
- 5.o'spirinlik davri (14-17 yosh)
- 6.gemoroidal qon ketishlar
- 7.turli xil sabablar okibatida qon yukotishlar
- 8.donorlar
- 9.bolalarning uzi xavf guruhiga kiritiladi

TEMIR TANQISLIK ANEMIYASIDA KUZATILADIGAN LABORATOR O'ZGARISHLAR:

Gemoglobin turli xil darajada pasayadi

- Eritrostitlar miqdori qon yukotilgan paytda kamayadi
- Rang ko'rsatkich kamayadi (0,3-0,4)
- Retikulositlar qon yukotganda kupayadi (2-8 promilli, 0,2-0,8%)
- Trombosit, leykosit, leykoformula uzgarishsiz
- EChT uzgarishsiz
- Eritrostitlar morfologiyasida gipoxromiya, anizoxromiya (xar xil buyalishi), poykilostitoz (xar xil shaklda), mikrostitoz
- Zardobdagi temir miqdori pasayadi
- Transferrin, ferritin, gemosiderin pasayadi.

VITAMIN B12 TANQISLIK ANEMIYASIDA QUYIDAGI SINDROMLAR KUZATILADI:

1. Anemik sindrom
 2. Oshqozon ichak sistemasining jaroxatlanish sindromi
 3. Nerv sistemasining jaroxatlanish sindromi
- Kasallikning birinchi klinik belgilari anemik sindrom belgilari bilan boshlanadi.

SINDROMLAR

Anemik sindrom belgilari - bosh aylanishi, birdan urnidan to'rganida kuz oldi tinishi, engil jismoniy xarakatlarda xansirash, engil jismoniy xarakatlarda yurak tez urishi, yurak soxasida og'riqlar paydo bo'lishi, yurak xastaligi mavjud blugan kishilarda yurak soxasida bo'ladigan og'riqlar yoki xurujning kuchayishi, bosh og'riqlar, umumiy kuvvatsizlik. Bu belgilar organizmda kislorod etishmasligi natijasida kelib chikadigan simptomatika. Bu simptomatika barcha kamqonliklarda kuzatiladi.

SINDROMLAR

Oshqozon ichak sistemasining jaroxatlanish sindromi - bu epigastr soxasida og'riqlar paydo bo'lib, kungil aynishi, ayrim xollarda kusish, ishtaxa pasayishi, korin dam bo'lishi, kabziyat yoki ich ketishlar kuzatiladi. Atrofik gastritlar kuzatiladi.

Nerv sistemasining jaroxatlanish sindromi bu oyoklarning pastki kismalaridan boshlab igna sanchilgandek og'riqlar paydo bo'lib, bu og'riqlar asta-sekinlik Bilan yukoriga kutarilishi, oyoklarda sezuvchanlikning pasayishi, ikala oyokning sovuk kotishi (ogir darajali anemiyada bemorlar xatto yozda ham noski kiyib yuradi). Oyoklarda sezuvchanlikning yuqolishi okibatida urdaksimon yurishlar, shu jaroxatlanish belgilari oyokning pastki kismidan boshlab kichik chanok a'zolari soxasiga ham etishi mumkin. Ya'ni ixtiyorsiz siyishlar, bel umurtka soxasida jaroxatlanish uzatilganda bel soxasida og'riqlar paydo bo'ladi. Ayrim xollarda epileptik xurujlarham kuzatilish mumkin.

UMUMIY QON TAHLILIDA BO'LADIGAN MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR:

Gemoglobin miqdori kamayadi (eritrostit xisobidan)

- Eritrostitlar xosil bulişi kamayadi. Eritrostitopeniya 1 mln xatto undan ham kam
- Rang ko'rsatkich oshadi (1,2-1,3-1,4)
- Retikulostitlarda uzgarish kuzatilmaydi yoki retikulostitopeniya

Trombositlar miqdori kamayadi

- Leykositlar miqdori kamayadi
- Nisbiy limfositoz kuzatiladi
- EChT kisman oshishi
- Muxim ahamiyatga ega eritrostitlar va leykositlar morfologiyasi
- Eritrostitlar makrostitoz
- Buyalishi giperxromiya
- Eritrostitlarda yadro koldiklari topilishi: Kebot xalkasi, Jolle tanachasi
- Leykositlar morfologiyasida neyetrofillarning gipersegmentastiyalanishi. Ya'ni normada segment yadroli neyetrofillarda 2-3 ta segment bo'ladi. Bu kamqonlikda 7-8 ta segment bo'ladi
- Zardobda Vitamin V12 miqdorini aniklash mumkin. Bu kaallikda miqdori pasayadi.
- Yakuniy tashxis quyish uchun sternal punkstiya qilish kerak. Suyak kumigida megaloblast hujayralar topiladi.

O'TKIR LEYKOZDAN KEYINGI ANEMIK SINDROM.

O'tkir leykozda quyidagi sindromlar kuzatiladi.

- 1. Anemik sindrom**
- 2. Gemorragik sindrom**
- 3. Intoksikastion sindrom**
- 4. Giperplastik sindrom**

SINDROMLAR

Anemik sindrom belgilari - bosh aylanishi, birdan o'rnidan to'rganida ko'z oldi tinishi, engil jismoniy xarakatlarda hansirash, engil jismoniy harakatlarda yurak tez urishi, yurak sohasida og'riqlar paydo bo'lishi, yurak xastaligi mavjud bo'lgan kishilarda yurak soxasida bo'ladigan og'riqlar yoki xurujning kuchayishi, bosh og'riqlar, umumiy kuvvatsizlik. Bu belgilar organizmda kislorod etishmasligi natijasida kelib chikadigan simptomatika. Bu simptomatika barcha kamqonliklarda kuzatiladi.

Gemorragik sindrom belgilari - tananing turli xil joylarida turli diametrdagi ko'karishlar paydo bo'ladi, milklar qonashi, burundan qon kelishi, ayollarda xayz stiklining uzok mudat kuzatilishi, trombositlar miqdori kanchalik kup miqdorda kamayadigan bo'lsa , shunchalik kuchli gemorragik sindrom belgilari kuzatiladi.

SINDROMLAR

Intoksikastion sindrom belgilari - tana haroratining ko'tarilishi, infekstiya o'choqlari bo'lgan joyda infekstiyaning rivojlanishi (tonzillit, otit, tish og'riqlari, pnevmoniyalar, bronxit belgilari).

Giperplastik sindrom belgilari - organ va to'qimalarning kattalashishi, jigar yoki taloqning kattalashishi, limfa tugunlarining kattalashishi, yalliglanish hisobidan milklar shishi.

LABORATOR O'ZGARISHLAR:

Gemoglobin miqdori kasallik rivojlanishiga qarab o'zgarishi mumkin.

- Eritrostitlar miqdori ham xuddi shunday.
- Rang ko'rsatkich o'zgarishsiz.
- Retikulositlar o'zgarishsiz
- Trombositlar 70-80% kamayadi.
- Leykositlar miqdori katta ahamiyatga ega emas.
- Eng asosiy ko'rsatkich ushbu kasallikda periferik qonda blast hujayralar topilishi
- Leykoformuladagi boshka hujayralar kamayadi. Blast hujayra leykoformula tarkibiga kiradi.
- EChT oshadi.
- Morfologiya ahamiyatga ega emas.
- Sitoximik reakstiya o'tkaziladi.
- Peroksidaza musbat bo'lsa, mieloblast





**E'TIBORINGIZ UCHUN
BARCHANGIZGA**

rahmat